

## **TAYANCH HARAKAT A'ZOLARIDA MUAMMOLARI BO'LGAN BOLALAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI**

**Musaeva Dilfuza Abduraxmonovna**

*Nizomiy nomidagi TDPU Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari kafedrasini  
katta o'qituvchisi*

**Annoatsiya:** ushbu maqolada bola rivojlanishining murakkab psixo-fiziologik rivojlanishning orqada qolishi bilan tavsiflanuvchi bolalar serebral falaji, uning turlari, shakllari, kelib chiqish sabablari yoritilgan.

**Tayanch tushunchalar:** serebral falaj, spastik dipligiya, gemeparetik, giperkinetik, korreksiya, reabilitatsiya.

Jahon tajribasidan ma'lumki, ko'pgina rivojlangan davlatlar taraqqiyot darajasiga ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar, ya'ni bu borada o'zları yaratgan "Milliy model" orqali erishganlar. Shu nuqtai nazardan, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizdagi ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga kirishildi. Xalqimizga xos bo'lgan farzandlar kelajagi, yorug' istiqboli yo'lida g'amxo'rlik qilish, ulug' ajodolarimizga munosib barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazish maqsadi va ma'suliyati bilan yashash davlat va jamiyatimizning eng ustuvor vazifasiga aylandi.

Bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishda nutq benuqsonligining ahamiyati katta chunki nutq kishilar aro aloqa quroli, barcha sohalarda qudratli muomala vositasidir.

Tayanch harakat a'zolarida muammolari bo'lgan bolalarning ko'pchilik qismini bolalar serebral falaji tashkil etadi. Bolalalar serebral falaji miyaning harakatlanish markazlarini buzilishi oqibatida tayanch harakat a'zolarining falajlanishidir. Bolada qo'l oyoqlar yoki yuz muskullarining harakatini nazorat qiluvchi miyaning qismlari shikaslanishi natijasida tananing harakatchan a'zolari jonsizdek osilib turadi yoki juda ko'p holatda tarang tortishgan holatda bo'ladi. Serebral falaj bolalarda bosh yoki yuz muskullarining harakatlarini nazorat qila olmasligi yoki bunda qiyinchiliklarga duch kelganligi, til muskullarining falajlanganligi oqibatida nutqida ham og'ir nuqsonlar kuzatiladi. Bundan tashqari serebral falaj bolalarda ikkilamchi nuqson sifatida ko'rish, eshitish idrokida ham nuqsonlar kuzatiladi. Serebral falaj bolalarning mayda qo'l motorikasida ham juda qo'pol buzilishlar yuzaga keladi. Shuning uchun ham ularni yozma nutqga o'rgatish qiyin kechadi.

Serebral falajlik nuqsonning eng murakkablashgan turidir, chunki miyaga zarar yetishi natijasida bolada ba'zida umumiyligini aqliy qobiliyatlar ham buzilishi mumkin. Aqliy buzilishning darajasi falajlanish darajasiga bog'liq bo'lishi ham mumkin. Ammo serebral falaj bolalarning hammasida ham aqliy rivojlanishdan orqada qolish mavjud bo'lmaydi.

Shuning uchun ham pedagog sinfda ta'lim tarbiya olayotgan serebral falaj bolaning individual psixologik xususiyatlariga ko'ra ish olib borsagina samarali kechadi.

Serebral falaj bolalar bilan olib boriladigan ish maqsadlariga erishish uchun muayyan tarbiyaviy ma'rifiy ishlarga kompleks yondashib, ya'ni davolash tadbirlarini pedagogik ish jarayoni bilan chambarchas bog'lab olib borish kerak.

Serebral falaj bolalar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik va davolash ishlari kompleks olib borishni, bunda psixonevrolog, nevropatolog, defektolog tarbiyachi hamkorlikda faoliyat yuritishi talab etiladi. Bolalar serebral falaji - bu bosh miya harakatlantiruvchi zonalari va bosh miyadagi harakatni yo'naltiruvchi yo'llarni zararlanishi bilan kechadigan markaziy nerv sistemasi kasalligidir. Bolalar serebral falajida miyaning harakat va nutq sistemasida erta organik buzilishlar ko'zatiladi. Bu buzilishlarning sabablari turlicha bo'lishi mumkin: infeksion kasalliklar, homiladorlik davridagi turli intoksikatsiya va jarohatlanishlar, surunkali kasalliklar, ona va homila qonining rezus faktor va guruhi bo'yicha nomunosibligi. Bundan tashqari homilaning erta yoki kech tug'ilishi, genetik faktorlar ham asosiy shartlardan bo'lishi mumkin.

Bolalar serebral falaji ona homilasining faoliyatini buzilishi natijasida sodir bo'ladigan akusherlik jarohatlari, tug'riq paytida kindikni bo'yin atrofida o'ralab qolishi natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. Bunday: holatda bolaning markaziy nerv sistemasiga kislorod yetishmay qolib, bosh miya nerv xujayralarini zararlanishiga olib keladi.

Bolalar serebral falaji to'g'uruqdan keyin neyroinfeksiyalarning kechishi va bosh miyani qattiq jarohatlanishidan ham kelib chiqishi mumkin. Bu bolalarda barcha harakat funksiyasini shakllanishida susayish va buzilishlar kuzatiladi. Boshni ushslash o'tirish, turish funksiyalari qiyinchilik bilan yoki kechikib shakllanadi. Bolalar serebral falajida harakatni buzilishi asosiy nuqson hisoblanib, u o'ziga xos motor anamaliyani rivojlanishini ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida bola asab-psixik funksiyasini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar serebral falajida harakat sohasini buzilishi turli darajada namoyon bo'ladi: harakatning buzilishi shunday og'ir bo'lishi mumkinki u bolaning erkin harakat qilishidan butunlay mahrum qiladi, muskullarning tonusi deyarli zarar ko'rmagan taqdirda ham bolalar o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini qiyinchilik bilan egallaydilar.

Bu nuqsonga ega bolalarda faqat harakat qilishdagi qiyinchiliklar muammo tug'dirmaydi, balki ularda to'g'ri harakat qilishi haqidagi tasavvurlarni yo'qligi hamda shakllanmaganligi namoyon bo'ladi

Bolalardagi harakat buzilishlari o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakalarini egallanishini murakkabligi, ularni atrofdagi kattalarga qaram qilib qo'yadi. Bu ularda passivlikni, tashabbus ko'rsatmaslikni shakllantirib, motivatsion va irodaviy sohani buzilishiga olib keladi. Shunday qilib, harakat buzilishlari bolaning psixik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Harakatning buzilish darajasidan qa'tiy nazar bu bolalarda hissiy-irodaviy soha, xulq, intelekt, eshitish va ko'rish izdan chiqqan bo'lib, talvasa sindromi kuzatiladi.

Bunday bolalarning ko'pchiligidagi aqliy mehnat qilishi buzilgan bo'lib ular tez charchab qoladilar. Biror bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bajarilayoganda ular bo'shashadilar yoki tez jahillari chiqadi va berilgan topshiriklarni qiyinchilik bilan bajaradilar. Ba'zi bolalarda charchash oqibatida harakatida bezovtalik paydo bo'ladi.

Bola o'zicha har xil harakatlar qiladi, turli imo-ishoralarni ko'rsatadilar, so'lagi oqadi. Bolalarning ixtiyoriy faoliyatida tartiblikka erishish katta qiyinchilik tug'diradi.

Bolalar serebral falajida nutq buzilishi asosiy o'rinni egallaydi. Bolalar serebral falajida nutq buzilishi chastotasi 80% tashkil etadi.

Nutq buzilishlarining o'ziga xos tomonlari miyani qay darajada zararlanishiga qarab belgilanadi. Serebral falajga ega bolalarda ba'zi miya sohasidagi zararlanish bilan birga bosh miya po'stloq qismining buzilishlarini ikkilamchi rivojlanmaganligi yoki kech shakllanganligi ham namoyon bo'ladi. Bu miyaning ontogenetik tomondan yosh bo'lgan bo'limlari bo'lib, u insondagi psixik va nutq faoliyatini shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Bolalar serebral falajida nutqni kech rivojlanishiga sabab, miyaning po'stloq bo'limlarini sekin shakllanishigagina emas, balki ularda amaliy faoliyatni yetarli emasligi, atrof - muhit haqida bilim va tasavvurlarni yetishmasligidir.

Tarbiyaning noto'g'ri kechishi nutq rivojlanishini orqada qolishini murakkablashtiradi. Bu bolalar hayotining birinchi yillarda turli davolash muassasalarida bo'ladilar, agarda u yerda pedagogik ishga yaxshi ahamiyat berilmasa bolaning nutqiy rivojlanishi kechishi mumkin.

Bundan tashqari, bolalarning onasidan uzoqda bo'lishi salbiy emotsiyonal holat, yangi muhitga o'rgata olmaslik nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uy sharoitida kattalar bolani juda avaylab hamma majburiyatni o'z zimmalariga oladilar. Bu bolalarda faoliyat va nutqiy muloqatga bo'lgan talabni shakllantirmay qo'yadi.

Bolalar serebral falajida nutq buzilishlari patogenezida harakat patologiyasi muhim o'rinni tutadi. Bu bolalar bilan logopedik ishni tashkil qilishda nutq va harakat buzilishlarini klinik va patogenetik umumiyligini tushunish ahamiyatli shisoblanadi.

Bolalar serebral falajida artikulyatsion matorikani buzilishini iziga xos tomonlaridan biri og'iz avtomatizmi bilan bog'liq tugma reflekslarni qayta rivojlanishidagi to'xtab qolishdir: bular sirish, yutish reflekslari, tishlash va boshqalar. Bu reflekslarni namoyon bo'lishi ixtiyoriy artikulyatsion sharakatlarni rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Nutq-harakat analizatorlarining organik zararlanishi nutq tovushlarini artikulyatsiya qilishni buzilishiga, ovozni, nafasni, nutq tempi va ritmi uning intonatsiyasini izdan chiqishiga olib keladi. Fonetika-fonematik buzilishlar yetakchi hisoblanadi. Bular bolalar serebral falajida dizartriyani o'ziga xosligi, bu uni nutq muskullariga tonik reflekslar orqali ta'sir etishda namoyon bo'ladi. Bu esa o'tkaziladigan logopedik ishni o'ziga xos ravishda o'tkazishni talab etadi.

**Tarixi.** "Serebral falajlik" atamasi XIX asrning o'rtalarida tibbiyotga kririb keldi. O'sha davrda ingliz xirurgi Litll bolalarda uchraydigan spastik falajliklarni xirurgik yo'llar bilan korreksiya qilishga uringan. Serebral falajliklarning asosiy sababchisi tug'ruq paytida ro'y beradigan bosh miya jarohatlari, deb yozgan edi Litll. U o'z ishlarida "serebral falajlik", "spastik diplegiya" atamalarini ko'p keltirib o'tadi. Keyinchalik mutaxassislar bolalarda

zo'raymaydigan va deyarli turg'un holatda qoladigan falajliklarni "Bolalar serebral falajligi" degan umumiy nom bilan atay boshlashdi. Spastik diplegiya esa Litll kasalligi nomini oldi.

### Tasnifi.

-KXT-10 da BSF G80 rubrikada aks ettirilgan. Ushbu tasnifning G80.0-G80.9 ruknlarida BSF ning turli klinik sindromlari keltirib o'tiladi (12.1-jadval). 12.1-jadval

Bolalar serebral falajligida klinik sindromlarning		
Kod	Bolalar serebral falajligida klinik sindromlarning KXT-10 bo'yicha nomlanishi	Klinik nevrologiyada nomlanishi
G80.1	Spastik diplegiya(Litll kasalligi)	Ikki tomonlama gemiplegiya (spastik serebral falajlik)
G80.1	Spastik diplegiya (Litll kasalligi)	Spastik diplegiya (Litll kasalligi)
G80.2	Bolalar gemiplegiyasi	Gemiplegik turi
G80.3	Diskinetik serebral falajlik	Giperkinetik turi
G80.4	Ataktik serebral falajlik	Ataktik (miyacha) turi
G80.8	Serebral falajlikning aralash turlari	Spastik-ataktik, spastikgiperkinetik, atonik-astatik turlari
G80.9	Aniqlanmagan bolalar serebral falajligi	

Bolalarda tayanch hrakat a'zolaridagi nuqsonlarning kelib chiqishining sabablari turlichadir. Umumiy tarzda ular uchta turga ajratiladi: homiladorlik davridagi (prenatal davr), tug'uruq vaqtidagi (natal davr) va tug'uruqdan keyingi (postnatal) davrlardagi turli xil salbiy omillar ta'siri. Ulardan har birini alohida ko'rib chiqamiz.

**Birinchi guruh-prenatal davr omillari.** Prenatal davr omillari ham o'z navbatida 3 ta guruhga ajratiladi:

- Ona sog'lig'inинг holati;
- Xomiladorlikka ta'sirlar;
- Nasldagi nuqsonli rivojlanish omillari.

Birinchi guruh-onasog'lig'ining holati omilining holati omiliga quyidagilar kiradi:

- ona tanasidagi somatik, endokren, yuqumli kasalliliklar;
- ichki ta'sirlar;
- homiladorlik orasidagi vaqtning juda yaqin bo'lishi;
- giyohvandlik, alkogolizm, kashandalik va boshqalar.

2-guruh omillariga (homiladorlikka ta'sirlar) homiladorlik paytida gormonal buzilishlar, qon aylanishdagi buzilishlar, onadagi estrogen gormonining yetishmasligi, ota va onadagini rezurs faktorning to'g'ri kelmasligi, kamqonlik, kabilar kiradi.

3-guruh omillariga (nasldagi) quyidagilar kiradi: onaning 30-37 yoshdan keyin xomilador bo'lishi, nasliy nuqsonlar.

### Natal davrdagi (tug'uriq vaqtidagi) omillar.

Bu omillar quyidagcha farqlanadi:

- tug'uriq vaqtidagi asfiksiya;
- tug'uriq vaqtidagi bolaning turli xildagi jarohatlar olishi;
- bolaning tug'ilish vaqtini cho'zilib ketishi va boshqalar.

### Postnatal davr (bola hayotining bir yoshgacha bo'lgan davri)dagi omillar.

Postnatal davrdagi omillarga quyidagilar kiradi:

-jarohatlar: bolaning bosh miyasining jarohatlanishi oqibatida gematomalarning yig'ilib qolishi;

-infeksiyalar: meningit, ensefalit, miya yiringlashi;

-zaharlanish: dorilar, antibiotiklar ta'sirida,

-kislorod yetishmasligi:

-bosh miyada turli xildagi o'smalar rivojlanishi va boshqalar.

### Tibbiy etiologiyasi.

Bolalar serebral falajligi – ko'p etiologiyali kasallik.

Homiladorlik paytida onadagi mavjud turli infeksiya (SMV, toksoplazmoz va h.k.) va kasalliklar (toksikoz, og'ir anemiya, surunkali intoksikasiya, endokrinopatiyalar), zararli odatlar (chekish, ichish, giyohvandlik), yo'ldosh kasalliklari, ona-bola rezusomilining to'g'ri kelmasligi, embriotoksik ta'sirga ega farmakologik dorilarni iste'mol qilish BSF rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Bola tug'ilayotganda ro'y beradigan bosh miya jarohatlari, serebral ishemiya, gipoksiya va gemorragiyalar ham ushbu kasallikning asosiy etiologik omillaridan hisoblanadi.

Shu yerda bolaning muddatidan ilgari tug'ilib qolishi va tana vaznining pastligini ham alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Chunki "bolalar serebral falajligi" tashxisi qo'yilgan bolalarning aksariyati muddatidan ilgari tug'ilgan va tana vazni 2000 g dan past bo'ladi.

Masalan, 1500 g tana vazni bilan tug'ilgan bolalarda BSF rivojlanish xavfi tana vazni normal tug'ilgan bolalarga qaraganda deyarli 30 barobarga oshadi.

Tana vazni past bo'lishining asosiy sabablari esa yuqorida ko'rsatilgan etiologik omillardir.

Erta (16 yoshgacha) yoki kech (40 yoshdan keyin) homilador bo'lgan ayollardan tug'ilgan bolalarda ham BSF rivojlanish xavfi yuqori hisob-lanadi.

BSF ning yana bir etiologik omillaridan biri – bu genetik omil.

Ota-onaning yaqin qarindosh bo'lishi va shu kabi turli nasliy omillar bolada bosh miyaning rivojlanmay qolishiga (miya disgeneziyasi) sabab bo'ladi. Bunday paytlarda genetik etiologiyali BSF haqida so'z ketadi.

BSF rivojlanishida erta postnatal davrda ro'y bergen kasalliklar, ya'ni ishemik va gemorragik insultlar, giposik-ishemik ensefalopatiyalar, bosh miya jarohatlari (shu jumladan, gematomalar) meningoensefalitlar (qizamiq, qizilcha) ham etiologik omil sifatida qaraladi.

Ammo BSF rivojlanishida postnatal omillarga qaraganda prenatal va natal omillarga asosiy urg'u beriladi.

BSF patogenezi etiologik omilning bola miyasiga qaysi davrda, ya'ni prenatal, natal yoki postnatal davrlarda ta'sir etganiga ko'p jihatdan bog'liq.

Homiladorlik paytidagi turli infeksiya va kasalliklar yo'ldosh orqali bolaning qon bilan ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda bolalar seraebral falaji murakkab pato-fiziologik kamchilik bo'lib uzoq muddatli hamda kompleks-korreksion yondashuvni talab qiladigan jarayondir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ayupova M.Y. Logopediya. O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2007 y.
2. Muminova L.R., Abidova N.Z.. Maxsus psixologiya. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.